



Ma'muraxon MADAMINOVA,
ADU tayanch doktoranti, ADPI o'qituvchisi
E-mail: mamuraxonmadaminova6@gmail.com

DSc, professor A.Abdullayeva taqrizi asosida

XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA VOAYEABAND LIRIKA

Annotatsiya

Lirik asarning kechinma obyekti ko'ra meditativ va tafsifiy lirika turlari bor bo'lib, yangi o'zbek she'riyatining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Xurshid Davron ijodida ham ushbu guruhga kiruvchi she'rlarning bir necha namunalarini mavjud. Mazkur maqola shoир ijodidagi tafsifiy lirika ko'rinishlaridan biri hisoblanuvchi voqeaband she'rlarni nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratildi.

Kalit so'zlar: tafsifiy lirika, voqeaband lirika, voqeaband she'r, yangi o'zbek she'riyati, Xurshid Davron, lirik tasvir.

EVENTFUL LYRICS IN TaYE POETRY OF KHURSHID DAVRON

Annotation

There are meditative and descriptive types of lyrics according to the object of experience of the lyrical work, and there are several examples of poems belonging to this group in the work of Khurshid Davron, one of the prominent representatives of the new Uzbek poetry. This article is focused on the theoretical analysis of eventful poems, which are considered to be one of the descriptive lyrics in the poet's work.

Key words: descriptive lyric, eventful lyric, eventful poem, new Uzbek poetry, Khurshid Davron, lyrical image.

СОБЫТИЙНАЯ ЛИРИКА В ПОЭЗИИ ХУРШИДА ДАВРОНА

Аннотация

В зависимости от предмета переживания лирического произведения различают медитативный и описательный типы лирики, а в творчестве Хуршида Даврона, одного из ярких представителей новой узбекской поэзии, имеется несколько примеров стихотворений, относящихся к этой группе. Данная статья посвящена теоретическому анализу событийных стихотворений, которые считаются одними из описательных лирик в творчестве поэта.

Ключевые слова: описательная лирика, событийная лирика, событийная поэма, новая узбекская поэзия, Хуршид Даврон, лирический образ.

Kirish. Qator adabiyotshunoslikka oid manbalardan ma'lumki, voqeaband lirika va voqeaband she'r o'zaro o'xshashdek tuyilsa ham, turlicha mazmun kasb etadi. Bilamizki, voqeaband lirika shaklida yozilgan asarlar-tuzilish, ifoda hamda badiiy maqsadga ko'ra lirik subyekt his-tuyg'ulari ifodasi uchungina xizmat qiluvchi detal-voqeaga asoslanadi. Adabiyotshunos olim D.Quronov ta'kidlaganlaridek, bu turdag'i lirikada voqeani tasvirlash maqsad emas, balki bir vosita, lirik kechinmani ifodalash vositaside. Shunga ko'ra unda voqeai to'laqonli tasvirlanmaydi, balki punktirlar bilan chiziladi, uning eng muhim detallarini olish, eng qizg'in, kulminatsion nuqtalarga urg'u berish bilan kifoyalaniladi. [5, 79] Voqeaband she'rarda esa asosiy maqsad – voqeani ifodalash bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotimizning ko'zga ko'ringan, faol ijodkorlaridan sanalmish Xurshid Davron o'tgan asrning oxirgi choragida voqeaband shakldagi ijod namunalari bilan tafsifiy lirika namunalarini anchayin boyitdi. Xususan, uning "Bahor aytdi...", "Qaroqchi", "Tog'dan tushdi qishloqqa cho'pon...", "Yor sochi haqida rivoyat", "XX asr onasi", "Algomishning qaytishi", "Atlanta cho'kdi...", "Kuz ertagi", "Bir cholni uchratdim", "Jang tugadi...", "Kutish", "Chol va Kampir", "Yoz ertagi" kabi she'rlari voqeai ta'sirida yuzaga kelgan his-tuyg'uni ifodalash hamda o'quvchining uni tasavvur qila olishi, lirik kechinmaga turki bo'lgan asosni his qila olishi uchun yetarli voqealari tasvirlanishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Muallif ko'plab she'rlerida jamiyatda bo'layotgan hodisalarga munosabatni ifodalash

uchun aniq bir voqeani oladi, ammo uni izchil tasvirlamaydi, balki uning eng muhim nuqtasini his-tuyg'ularga qorishiq holda ifodalaydi. Masalan, quyidagi namunaga e'tibor qarataylik:

Qimirladi tunda u Yuragimning ostida,
Qimirladi qo'rquv-u Ajib bir talvasada.
Go'yo so'ramoq bo'lди – Ona, ayt, tinchmi olam?
Yuragim g'amga to'ldi, Shivirladim: - jim, bolam! [7]
Sarlavha "XX asr onasi" deya nomlanishidan ayonki, gap XX asr vogeliklari xususida bormoqda. Ushbu davrda xalqimiz qanchadan qancha taloto'plarni boshdan kechirgani haligacha eslanadi. Ikki bor jahon urushlarining mudhish oqibatlari, qolaversa mustamlaka siyosati: qulqlashtirish, qatag'on, turli qo'zg'alolnarning qonli bostirilishi hamda siyosatning mafkuralashuvi natijasida turmushning barcha bo'g'lnlarida zo'raki madhbozlik holatlari birgina yuqoridagi mo'jaz asar qatiga singdirib yuborilgan. Jamiyatda, dunyoda bo'layotgan ishlardan, hatto qorindagi hali tug'ilmag'an jon ham sarosimada ekani, ona esa tilda emas, xayolida ham bu voqealiklar haqida o'ylashdan qo'rishi, siyosiy hodisalarini asl holida bayon etolmasligi "...jim, bolam!" jumlalarida ta'sirda ifodalangan.

Yoki ijodkorning 1982-yilda yozilgan "Tog'dan tushdi qishloqqa cho'pon..." [8] deb boshlanuvchi she'rida bir qissaga arzirli voqealik mazmuni singdirib yuborilganiga guvoh bo'lamiz. Tasvirning "...Xotin qo'ydi dasturxoniga non, Ko'zlarini yerdan hech uzmay. Qo'l urmadni, tuz totmadni, Ko'zlarida cho'kkandi qayg'u..." tarzida berilishidan o'quvchi qandaydir mudhish, ko'ngilni xijil qiluvchi voqeai

bo‘lib o‘tganini taxmin qiladi. Keyingi baytlardagi “- Qani so‘zla, oh, qani gapir, Nomusimni toptagan kim u?!” deya zorlangan lirik qahramonning alamlı so‘zlaridan so‘ng bo‘lib o‘tgan hodisa ravshanlashadi. “Agar uni sevsang... kechaman... Qaytib tilga olmayman otin...” deya xiyonat tafsilotlarini so‘roqlagan er, jimlikdan so‘ng “- Sevmaysammi?! Xo‘p... gunohingni O‘zim o‘tay... El ham kechirar...” deya xotini ko‘ksiga xanjar urishi bilan she‘r yakunlanadi. Mo‘jazgina shu asarda xalqimizning “turg‘unlik davri”dagi nafsi o‘pqon urganchisi raislari-yu amaldorlarining istalgan buzuqliklari sababli qanchadan qancha oilalar darz ketgani, yuzlab yosh kelinchaklar, go‘zal ayollar ixtiyorsiz badnom bo‘lgani, ayrimlari o‘z joniga qasd qilib, boshqalari yuqoridaq kabi yori qo‘lida jon berish holatlari “Jimjilik”, “Tushda kechgan umrlar”, “Ultontoz” singari asarlarda yoritilgan parchalarni yodga soladi. Ammo she‘rda maqsad voqeqlik emas, u orqali yuzaga kelgan kechinma hamda uning qay tarzda bayon etilishi va qabul qilinishi bo‘lgani uchun ham, lirik qahramonning oniy lahzadagi holatini o‘z tanamizda “his qilgan” holda qabul qilamiz va e’tirozsiz asarni lirika namunasiga kiritamiz.

Xurshid Davron ijodida bu turdagi she’rlarni turli ko‘rinishda uchratishimiz mumkin. Ayrimlarida qalamga olingan voqeqlik dinamik tarzda bayon etilgan bo‘lsa, boshqalarida 1-2 misralik dinamik harakatdan so‘ng statik holat tafsilotlari ko‘zga tashlanadi. Yana bir turdagи she’rlarda asosiy voqeqlikka nima turki bergani va tavsifning nima sababdan berilganini faqat to‘liq asar mazmunidan anglash mumkin bo‘ladi. Misol sifatida “Kutish” nomli she‘rini olaylik:

Deraza pardasi silkinar,
Qaylargadir suzar xonalari.
Qiz yuzida toshgan sepkillar
Bahordan va ishqidan xotira.
Derazadan termiladi qiz ko‘chadagi toliqqan yozga.
“Hademasdan kirib kelar kuz...” – qiz shunday deb yozar qog‘ozga [2]

Bir qarashda yuqorida berilgan misol voqeaband lirikaga mos emasdek, seziladi. Ammo parchadagi “Hademasdan kirib kelar kuz...” jumlesi asar sarlavhasi bilan birgalikda mushohada qilinganda, qolaversa yuqoridaq “bahor”, “ishq” jumlalari hisobga olinsa, misrada berilmagan, lekin mazmunan tasavvur qilsa bo‘ladigan voqeqlik namoyon bo‘ladi: lirik qahramon – qiz sevgan yori visolini – nikoh to‘yini orziqib kutayotgani ayon bo‘ladi. Negaki, o‘zbekona urf-an‘analarnizga nazar tashlaganimizda, avvallari to‘ylar ko‘p hollarda kuz faslida o‘tkazilardi. Sababi asosan dehqonchilik bilan kun kechirgan xalqimiz hosilni aynan shu faslda yig‘ib olishgan, to‘y qilishga yetarlicha mablag‘ va sharoit bo‘lgan.

Tahsil va natijalar. Voqeaband turdagи lirika namunalarining ayrimlarida qalamga olingan voqealari majoziylik yoki ramziylik kasb etishi, bu orqali esa muallif ijtimoiy-falsafiy fikrlarini bayon etishi ham mumkin. 1984-yil yozilgan sarlavhasiz she‘rida ijodkor aynan shu usuldan foydalangan. Unda tarixda bo‘lib o‘tgan katta voqealari bir-biriga zanjirdek bog‘langan holda ketma-ket tasvirlanadi va ularning har birida ushoq nonni yelkalab olgan va bir maromda odimlab borayotgan chumoli tasviri beriladi. Atlantida cho‘kishi, Troya janggi, Iskandar yurishlari, Parfiya, Baqtriya va tuproqqa qorilgan Turon zamini, qora tuyruk, Xirosimadagi fojealarning har birida chumolining shu holati berib ketiladi. SHe‘r yakuni esa “Donni yelkalagan chumoli esa O‘rmalar... u qachon manzilga yetar?!” [7, 32] tarzida tamomlangan. Misralarda esga olingan tarixiy jarayonlar tasviri bevosita don orqalab yurishdan to‘xtamayotgan chumoli tasviriga zdilantiriladi hamda bu orqali o‘quvchi dunyoda qanday hodisalar bo‘lib o‘tdi, yana qanday ishlar amalga oshirilayabdi-yu, hamon qorin g‘amidan yoki

mehnatdan boshqasini o‘ylamay betinim sarson bo‘layotgan odamlar yaxlit holda chumoli obraziga muqoyasa qilinganini anglaydi. Bu o‘rinda voqeabandlik muallifning ijtimoiy-falsafiy mushohadalari uchun xizmat qilganini anglash qiyin emas.

Voqeaband lirikaga xos asarlarning umumiyligida mushtarak jihatli ular asosida voqealari yotishi, voqealari tasvirlash maqsad emas, balki vosita ekani, asosiy maqsad esa voqealari ortida turgan va uni hissiy mushohada etayotgan lirik subyekt qalbini akslantirish [1, 397] ekanini aytilib o‘tdik. Shunga ko‘ra, Xurshid Davronning “Chol va kampir” she‘rida bayon etilayotgan voqeqlik, garchi qarovsiz hovlida chol-kampirning yolg‘iz yashashi tasviri bo‘lsa-da, undan anglashilgan va lirik subyekt orqali o‘quvchiga “yuqadigan” hissiyot urushga nafrat, uning oqibatlari, oddiy insonlar hayotiga ko‘rsatgan mislsiz ta’siri – fojeasi bo‘lishi aniq. Suvog‘i ko‘chgan devorlar, har ochilganda g‘ijillovchi eshik hamda uzoq muddatdan buyon avyonda osig‘liq turgan va chang bosgan beshik tasviridan bu qarovsiz uyda ularga yordamchi yo‘qligidan “ular farzandsiz bo‘lsa kerak”, deb tahmin qilgan o‘quvchi she‘r yakunidagi “O‘ttiz yildir tush ko‘radi chol Smolenskda qolgan qo‘lini. O‘ttiz yildir kampir tush ko‘rar urushdan qaytmagan o‘g‘lini” [2] jumlalalarini o‘qigach, qahramonlarning achinalri bu holatiga asosiy sababchi, ularni yakka-yu yagona o‘g‘lidan judo qilgan narsa, aslida, urush ekanini bilgach, qalbida bu so‘zga nisbatan ulkan nafrat sezadi. Shoiring voqeqlik vositasida o‘quvchiga singdirmoqchi va bermoqchi bo‘lgan hissiyoti ham aynan shu, aslida.

Xurshid Davron ijodida voqeaband lirikaning yana bir ko‘rinishi mavjudki, bu tarzda asarlarda bir nechta voqeqlik beriladi hamda barchasidan olingan umumiyligida yaxlit fikr shoir demoqchi bo‘lgan badiiy xulosasi o‘laroq yangraydi:

Bir cholni uchratdim,
Qo‘li qon edi,
“Nima bo‘ldi?” – deya so‘radim hayron.
“Do‘sstimni dushmanga sotgandim...” – dedi, –
Ikki qo‘lim qondir o‘shandan buyon”.

Bir cholni uchratdim Tili yo‘q edi. “Nima bo‘ldi?” – dedim yoniga kelib.

G‘o‘ldirab nimadir dedi, xo‘rlangan
Bobolar qabriga ishora qilib.
Bir cholni uchratdim,
Ko‘zi ko‘r edi.
“Nima bo‘ldi?” – deya so‘radim hayron.
Xiyonat qilgandim iymonga... – dedi, –
O‘zimni izlayman o‘shandan buyon” [7]

Ushbu she‘rdagi lirik qahramonning oniy lahzadagi kechinmalari uchta mo‘jaz voqealar orqali shoir qalb prizmasidan o‘tkaziladi hamda uni o‘qigan she‘rxon dilida do‘stiga, aziz insonlarga, Vataniga hamda Imoniga nisbatan qilingan sotqinlik, xudbinlik, xiyonat kechirib bo‘lmas, shu bilan birga jazosi tayin qabohat shaklida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham yuqoridaq ijod namunasini voqeaband lirika sifatida asosli tarzda qabul qilamiz.

Xurshid Davronning yana shunday voqeaband she‘rlari mavjudki, ulardagи voqeqlik bir-birini to‘ldirgani holda, har biri alohida holda ham mustaqil asar sifatida talqin etilishi mumkin. Fikrimiz dalili sifatida shoiring “1941-yil. 22-iyun. Tongotar” hamda “1941-yil. 22-iyun. Peshin” she‘rlarini olishimiz mumkin. Har ikki asar ham 1985-yil yozilgan bo‘lib, ularning dastlabkisida tinch, osuda xonardonning tonggi palladagi uyqusи, tungi salqinlikdan seskanib uyg‘ongan erkakning ayoli hamda pishillab ugrayotgan o‘g‘liga mehribonlik bilan termilishlari tasvirlangan bo‘lib, so‘nggi misralar: “Nogah keldi guldirak sasi, Yomg‘ir yog‘sa ajabmas, dedi. O‘z-o‘ziga shivirlab kulib, – U bilmasdi, Bu Urush edi...” [2] jumlalarining o‘zi ham o‘quvchi qalbida havotir, seskanish, qandaydir

besaranjomlikni yuzaga keltiradi. Aynan mana shu oxirgi misralardagi birgina so'z urushga bog'liq barcha tafsilotlarni o'quvchi tasavvuriga bir-bir keltiradi hamda she'rda bayoni berilmagan, ammo mazmunniga singdirilgan sarosimali kutuv holati yuzaga keladi. Ikkinci she'rda ham lirkik subyektdan tashqari voqeа tasvirlangan:

Ularни qo'yishdi jar yoqasida...
Otasin qo'lini ushlagan go'dak
Chor atrofga qarab sho'x, olazarak,
So'radi: "O'q tegsa og'rirmi, dada?"
Uning ovozini bosdi guldirak...
Bahorda jarlikni qoplar o't-o'lan,
O'tlar uzra suzib o'tar oq bulut
Va shunda giyohlar achchiq dard bilan
Shivirlar-shivirlar: "Og'rirkан, dada!"
Bu nola hech qachon bo'lmaydi unut...[2]

Adabiyotshunos olim D.Quronov ta'kidlaganlaridek, ushbui she'r rangtasvir polotnosiga monand, unda voqeanning muayyan bir lahzasi qotirib qo'yilgan. O'quvchi rangtasvir asarining tomoshabini kabi shu lahzagacha va undan so'ng bo'lgan holatni, voqeanning yetishmayotgan halqalarini tiklay oladi... dushman qo'qqisdan hujum qilgan paytdagi holat – urushning dahshatli manzaralarini, shoshib qolgan ota-

bolaning asir qilinishi, boshqalarga qo'shib haydab ketilishi, va niroyat jar yoqasida tikka qilinganliklarini tasavvurida bemalol jonlantira oladi [6]. Avval ham aytganimizdek, mazkur she'r bir butun holda voqeaband lirikaning go'zal namunasi bo'lishi bilan bir qatorda, o'zidan avvalgi "1941-yil. 22-iyun. Tongotar" she'rining mantiqiy davomi sanaladi. Har ikki asarni ketma-ketlikda o'qigan o'quvchi urushning tinch aholi hayotiga qanchalar tahlikali izlar qoldirgani, insoniyatga ayovsiz qirg'in keltirgani hamda millionlab norasida murg'ak jonlarning aynan mana shu urush sababli yer ostida "O'q tegsa, og'rirkан, dada!" deya zorlanib yotganlari haqida yuraklari uvishib xayolga beriladi. Xuddi mana shu nuqtada lirika o'z vazifasini bajaradi: shoir o'z qalbidan oniy lahzalarda tuygan kechinmalarini – his-tuyg'ularini voqeabandlikni vosita qilgani holda o'qirman qalbiga ham "yuqtiradi".

Xulosa. Sirasimi aytganda, XX asr so'ngida yangicha ko'rinishda bo'y ko'rsatgan o'zbek she'riyati tavsifiy lirikaning bir ko'rinishi sanalgan voqeaband lirikada ham samarali namunalari yaratdi. Xususan, ayni davrning faol ijodkorlaridan hisoblangan Xurshid Davron ijodida ushbui janrdagi she'rlar turfa xil ko'rinishda namoyon bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b
2. Даврон, Хуршид. – Болаликнинг овози: Лирика. –Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 208 б.Davron, Xurshid. – Bolalikning ovozi: Lirika. –T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – 208 b.
3. Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадиий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Филол.фан.докт... дисс. – Т.: 2018. – 252 б.
4. Ҳамдамов У. Янги ўзбек шеърияти. Тошкент: Адиб, 2012. –304-б
5. Куронов Д. ва бошқалар. Адабиёцхунослик лугати. – Тошкент: "Академнашр", 2010. –400 б.
6. Д.Куронов. Мутолаа ва идрок машқлари. Тошкент: Академнашр, 2013. –336 б.
7. Хуршид Даврон. Баҳордан бир кун олдин: Шеърлар, ривоятлар, таржималар. –Т.: "Шарқ", 1997. –224 б.
8. Хуршид Даврон. – Тўмариснинг кўзлари: Шеърлар, ривоятлар, достон. –Тошкент: "Ёш гвардия", 1984. –113 б.